O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2022 - yil 16 - noyabr 417-3-55-Q/22 Jizzax shahar hokimligi

Ижтимоий муҳофазага муҳтож, иш топишда қийналаётган ва меҳнат бозорида тенг шартларда рақобатлаша олмайдиган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларининг энг кам сонини белгилаш ва захирага қўйиш тўғрисида

Ўзбекистон Республикаси Ўзбекисон Республикаси «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуннинг 32 ва 34-моддаларига ва Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 5 декабрдаги 965-сонли қарори билан тасдиқланган “Ижтимоий муҳофазага муҳтож, иш топишда қийналаётган ва меҳнат бозорида тенг шартларда рақобатлаша олмайдиган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларининг энг кам сонини белгилаш ва захирага қўйиш тартиби тўғрисида”ги Низомга асосан шаҳарда 2023 йилда ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини банд қилиб қўйиш мақсадида

Қ А Р О Р Қ И Л А М А Н:

1. Ўзбекистон Республикаси Ўзбекисон Республикаси «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуннинг 32 ва 34-моддаларига асосан ижтимоий муҳофазага мухтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун ходимларнинг ўртача сони 20 нафардан кўпни ташкил этадиган корхона, муассаса ва ташкилотларда 2022 йил учун 3 фоиздан 7 фоизгача жами **382** та квота иш ўринлари иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Шу жумладан:

ўн тўрт ёшгача ва ногирон болалари бўлган ёлғиз ота, ёлғиз ва кўп болали ота-оналар учун 5 фоиз (88 киши);

умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини тамомлаган ёшлар, шунингдек, олий таълим муассасаларининг давлат грантлари

бўйича таълим олган битирувчилари учун 5 фоиз (212 киши);

сафарбарлик чақируви захирасида хизматни ўтаган ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафларидан муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар учун 6 фоиз (20 киши);

ногиронлиги бор шахслар учун 3 фоиз (28 киши);

пенсия олди ёшидаги шахслар учун 5 фоиз (17 киши);

жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилишидан озод қилинган шахслар учун 7 фоиз (14 киши);

одам савдоси қурбонлари учун 4 фоиз (3 киши);

2. Ушбу тоифа шахслар учун иш ўринлари ходимлар томонидан ўзларининг меҳнат мажбуриятларини тўсиқларсиз бажаришини таъминлайдиган санитария-гигиена нормалари ва меҳнат шароитларига мувофиқ бўлиши таъминлансин, хусусан,

ёлғиз ота, ёлғиз она ва 14 ёшгача бўлган ногирон болалари бор кўп болали ота-оналар учун - болаларни тарбиялаш ва меҳнат мажбуриятлари бўйича вазифаларни уйғунлаштириш имконини берадиган, ўзгарувчан иш жадвалига эга бўлган иш ўринлари;

ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини тамомлаган ёшларга, шунингдек олий ўқув юртларининг давлат грантлари асосида таълим олган битирувчилари учун - уларнинг касб бўйича тайёргарлигига мувофиқ бўлган иш ўринлари;

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларидан муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилганлар учун - уларнинг касб бўйича тайёргарлигига мувофиқ бўлган иш ўринлари;

ногиронлар учун - меҳнат шароитлари бўйича аттестациядан ўтказилган ҳамда ходимга иш жараёнларини тўсқинликсиз бажариш имконини (соғлиғининг аҳволи ва меҳнат фаолиятига нисбатан белгиланган зид кўрсаткичлар ҳисобга олинган ҳолда) берадиган иш ўринлари;

шаҳар Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказида иш қидирувчи сифатида ҳисобда турган пенсия ёшига яқинлашиб қолган шахслар учун - махсус малакани талаб қилмайдиган иш ўринлари;

жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суд қарорига кўра тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларига тортилган шахслар учун - уларнинг касб бўйича тайёргарлиги ҳисобга олинган ҳолдаги иш ўринлари, муайян касб-ҳунарга, малакага эга бўлмаган шахслар учун эса - махсус малакани талаб қилмайдиган иш ўринлари;

одам савдосидан жабрланган шахслар учун - уларнинг касб бўйича тайёргарлигига мувофиқ бўлган иш ўринлари.

3. Ижтимоий муҳофазага мухтож ва иш топишда қийналаётган шахслар

учун банд қилиб қўйилган иш ўрни илгари ушбу иш ўрнини эгаллаб келган шахс билан тузилган меҳнат шартномаси тўхтатилиши муносабати билан бўшаб қолганда бу ҳақда ташкилот 10 кун муддатда шаҳар Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказини янгидан очилган бўш иш ўрни тўғрисида хабардор этиши белгилансин.

4. Мулкчилик шаклидан қатъи назар барча корхона, муассаса ва ташкилотлар раҳбарлари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2017 йил 5 декабрдаги 965-сонли қарори билан тасдиқланган “Ижтимоий муҳофазага мухтож иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини банд қилиб қўйиш тартиби тўғрисида”ги Низомга мувофиқ ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахслар учун иш ўринларини белгиланган сони ҳисобида йил бошлангунгача 10 кундан кечикмай 25 фоиз, қолган қисмини банд қилиб қўйишни кейинги календарь йилнинг биринчи чораги мобайнида таъминласинлар.

Ташкилотлар ҳар ойда шаҳар Аҳоли бандлигига кўмаклашиш марказига ушбу тоифадаги шахсларни ишга жойлаштирилиши тўғрисида белгиланган тартибда ахборот тақдим этсинлар.

5. Ушбу қарорни бажармаган ташкилотларга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда жарима солинади.

Белгилаб қўйилсинки, маҳаллий давлат ҳокимияти органининг ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш қидиришда қийналаётган шахслар учун иш ўринларини банд қилиб қўйиш бўйича қарорини бажармаганлик учун жаримани тўлаганлик ташкилотни банд қилиб қўйиладиган иш ўринларининг белгиланган сонини ташкил этишдан озод қилмайди.

6. Ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш қидиришда қийналаётган шахслар учун банд қилиб қўйиш сонидан ортиқча иш ўринлари ташкил этилган тақдирда сарфланган маблағларнинг бир қисмини шаҳар Аҳоли бандлигига кўмаклашиш маркази билан тузилган шартнома асосида Бандликка кўмаклашиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан қопланиши белгилансин.

7. Шаҳар Аҳоли бандлигига кўмаклашиш маркази бир хафта муддатда ушбу қарорни иловада кўрсатилган ташкилот раҳбарлари эътиборига етказсин ва мазкур қарорнинг бажарилиши устидан назоратни таъминласин.

8. Ушбу қарор расман эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

9. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш шаҳар хокимининг биринчи ўринбосари А.Эргашев зиммасига юклатилсин.

Шаҳар ҳокими **К.Холмуродов**

Jizzax shahar hokimining
2022 yil 16 noyabrdagi
417-3-55-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Жиззах шаҳри бўйича ижтимоий мухофазага мухтож ва иш топишда қийланаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун 2023 йилга банд қилиб қўйилган (квоталанган) иш ўринлари бўйича рўйхат

№	Ташкилот ва корхона номи	Шаҳар статистика бўлимининг маълумотига кўра 14.07.2021 йил холатига корхонада ишловчилар сони (Штат жадвалига асосан)	Шундан		Яратилиши керак бўлган квота иш ўринлари	Банд қилинган иш ўринлари сони		2017 йил 05.12 даги 965 сонли Низомнинг бандига асосан Чегирма	Жами яратилган энг кам иш ўринлари захаралар сони	Шундан Ижтимоий мухофазага мухтож шахслар учун иш ўринлари тоифалари бўйича тақсимланиши							
			10%	3%		Жами	шу жумладан, ногирон-лар учун			Ёлғиз ота, оналар ҳамда 14 ёшгача ва ногирон болалалари бўлган Ёлғиз ва кўп болапли ота-оналар учун	Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб хунар таълим муассасаларини тамомлаган ёшлар, шунингдек, олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилар учун	Сафарбарлик чақируви захирасида хизматни ўтган ваЎзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар сафларидан муддатли харбий хизматдан бўшатилганлар шахсмлар учун,	Ногиронлар учун	Пенсия ёшига яқинлашиб қолган шахслар учун	Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суд кароригa кўра тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларига тортилган шахслар учун	Одам савдосидан жабрланган шахслар учун	Ижтимоий ахамиятга эга булмаган кассаликга чалинган фукаролар
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	JIZZAX DAVLAT O'RMON XO'JALIGI	117	4	0	4	4	0	2	**2**	1	1						
2	Jizzax viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi avtokorxonasi	640	25	0	25	25	0	19	**6**	1	2	1		1	1		
4	Узбекистон миллий телерадиокомпаниясининг Жиззах вилояти телерадиокомпанияси	60	3	0	3	3	0	1	**2**		2						
5	Jizzax viloyati hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi	55	3	0	3	3	0	1	**2**		2						
6	Jizzax viloyat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	120	5	0	5	5	0	2	**3**		3						
7	Jizzax shahar Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	56	3	0	3	3	0	1	**2**		2						
8	Jizzax viloyati Davlat veterinariya boshqarmasi	25	2	0	2	2	0	1	**1**		1						
10	Jizzax shahar veterinariya bo'limi	41	2	0	2	2	0	1	**1**		1						
11	Jizzax shahar hokimligi huzuridagi "Bog'lar va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash" Departamenti	155	6	1	7	7	1	3	**4**	1			1	1	1		
12	Jizzax shahar hokimligi "OBODONLAShTIRISh BOShQARMASI"	508	20	1	21	21	1	14	**7**	2			1	1	2	1	
13	"JIZZAXYO'LKO'KALAM" davlat unitar korxonasi	141	6	0	6	6	0	3	**3**	1	1				1		
14	Jizzax viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi	172	6	0	6	6	0	3	**3**	1	2						
15	Jizzax shahar Xalq ta'limi bo'limi	52	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1						
16	Jizzax viloyati Madaniyat boshqarmasi	48	2	0	2	2	0	1	**1**		1						
17	Jizzax viloyati xalq ta'limi boshqarmasi	56	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1						
18	JIZZAX VILOYATI MAKTABGACHA TA'LIM BOSHQARMASI	29	2	0	2	2	0	1	**1**		1						
19	Jizzax viloyati Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi	88	4	0	4	4	0	2	**2**		2						

20	JIZZAX VILOYAT UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH BOSHQARMASI	53	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
21	Jizzax viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi	35	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
22	Jizzax viloyati tibbiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi	104	5	0	5	5	0	1	**4**	2	2							
23	Jizzax viloyat O'simliklar karantini hududiy inspeksiyasi	41	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
24	Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Jizzax viloyati boshqarmasi	20	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
25	Jizzax shahar 5-sonli "G'UNCHA" nomli maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi	72	4	1	5	5	1	2	**3**	1	1		1					
26	"21-SON" Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasi	50	3	1	4	4	1	2	**2**		1		1					
27	Jizzax shahar 2-sonli "LOLA" nomli sog'lomlashtirish maktabgacha ta'lim muassasasi	44	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
28	Jizzax shahar 1-sonli "OYGUL" nomli MTM	45	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
29	Jizzax shahar 8-sonli "NIHOL" nomli MTM	54	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
30	16-sonli maktabgacha ta`lim muassasasi	41	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
31	Jizzax shahar 14-sonli "LAYLO" nomli MTM	35	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
32	Jizzax shahar 39-sonli "NAVRO'Z" nomli MTM	74	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
33	Jizzax shahar 10-sonli "DO'STLIK" nomli maktabgacha ta'lim muassassasi	49	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
34	Jizzax shahar 23-sonli "ShABODA" nomli MTM	23	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
35	Jizzax shahar 37-sonli "UMID" nomli MTM	53	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
36	Jizzax shahar 15-sonli "ZUMRAD" nomli MTM	26	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
37	Jizzax shahar 7-sonli "YULDUZChA" nomli MTM	39	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
38	Jizzax shahar 9-sonli "QALDIRG'OCh" nomli MTM	36	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
39	Jizzax shahar 36-sonli "ERTAK" nomli MTM	30	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
40	Jizzax shahar 41-sonli "DILOROM" nomli MTM	20	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
41	Jizzax shahar 3-sonli maktabgacha ta'lim mu'assasi	22	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
42	Jizzax shahar 34-sonli "GULChEXRA" nomli MTM	34	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
43	Jizzax shahar 26-sonli "DILNOZA" nomli MTM	26	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
44	Jizzax viloyati 13-sonli "BAXOR" nomli sog'lomlashtirish maktabgacha ta'lim muassasasi	49	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
45	Jizzax shahar 29-sonli "XUMO" nomli maktabgacha ta'lim muassasi	45	2	0	2	2	0	1	**1**	1								
46	Jizzax shahar 33-sonli "NARGIZ" nomli MTM	27	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
47	Jizzax shahar 19-sonli "SETORA" nomli MTM	24	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
48	Jizzax shahar 32-sonli "KAMALAK" nomli MTM	42	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
49	Jizzax shahar 24-sonli "SHODLIK" nomli MTM	30	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
50	Nurli maskan maktab internati	121	5	1	6	6	1	3	**3**		2		1					
51	Jizzax Ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internati	180	7	0	7	7	0	3	**4**	1	3							
	Jizzax shahridagi Prezident maktabi	62	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
52	1-sonli ixtioslashtirilgan maktab internati	100	4	1	5	5	1	2	**3**		2		1					

	"Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi jizzax shahar 3-sonli ixtisoslashtirilgan maktabi" davlat muassasasi	100	4	0	4	4	0	0	**3**		2	1						
53	Jizzax shahar 22-son ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabi	129	5	0	5	5	0	2	**3**	1	2							
54	Jizzax shahar 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	153	6	0	6	6	0	3	**3**		2	1						
55	Jizzax shahar 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	227	9	0	9	9	0	5	**4**	1	3							
56	Jizzax shahar 28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	50	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
57	HAMID OLIMJON va ZULFIYA nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab internati	50	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
58	Jizzax shahar 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	104	4	0	4	4	0	1	**3**	1	2							
59	Jizzax shahar 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	168	6	1	7	7	1	3	**4**	1	2		1					
60	Jizzax shahar 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	107	4	0	4	4	0	2	**2**		2							
61	Jizzax shahar 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	81	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
62	Jizzax shahar 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	111	4	0	4	4	0	1	**3**		3							
63	Jizzax shahar 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	205	8	1	9	9	1	4	**5**	1	3		1					
64	Jizzax shaxar 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	82	4	0	4	4	0	1	**3**	1	2							
65	Jizzax shaxar 11- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	139	5	1	6	6	1	2	**4**		2	1	1					
66	Jizzax shahar 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	126	5	0	5	5	0	2	**3**	1	2							
67	Jizzax shahar 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	85	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
68	Jizzax shahar 26-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabi	83	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
69	Jizzax shahar 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
70	Jizzax shahar 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	115	5	1	6	6	1	3	**3**		2		1					
71	Jizzax shahar 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	98	4	0	4	4	0	2	**2**	1	1							
72	Jizzax shahar 6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	150	6	1	7	7	1	3	**4**	1	2		1					
73	Jizzax shahar 23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	77	3	0	3	3	0	1	**2**	1		1						
74	Jizzax shahar 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	3	1	4	4	1	2	**2**		1		1					
75	Jizzax shahar 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	83	3	0	3	3	0	1	**2**		1			1				
76	Jizzax shahar 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	78	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
77	Jizzax shahar 15-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
78	Jizzax shaxar 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
79	Jizzax shahar 27-sonli umum o'rta ta'lim maktabi	59	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
80	Jizzax shahar 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	121	4	0	4	4	0	1	**3**	1	2							
81	Jizzax shahar 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	109	5	0	5	5	0	1	**4**	1	2			1				
82	Jizzax shahar 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	54	2	0	2	2	0	1	**1**	1								
83	Jizzax ixtisoslastirilgan san'at maktabi	150	6	0	6	6	0	3	**3**		2	1						
85	Jizzax Politexnika instituti Akademik litseyi	97	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
86	Jizzax Davlat Pedagogika instituti Akademik litseyi	150	6	0	6	6	0	4	**2**	1	1							
87	Jizzax shahar Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	181	7	0	7	7	0	4	**3**	1	2							
90	Jizzax politexnika instituti	735	29	1	30	30	1	23	**7**	2	2		1	1		1		
91	Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti	1131	45	1	46	46	1	28	**18**	4	10	2	1	1				
92	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali	74	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
93	"GIMNASTIKA BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN" bolalar-osmirlar sport maktabi	33	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
94	Jizzax viloyati bolalar va o'smirlar futbol akademiyasi	42	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
95	"SHAHAR BOLALAR - O'SMIRLAR SPORT" MAKTABI	42	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
96	"SPORT O'VINLARI VA ENGIL ATLETIKA BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN" bolalar-o'smirlar sport maktabi	67	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
97	"YAKKAKURASH SPORT TURLARI BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN" bolalar-o'smirlar sport maktabi	99	3	0	3	3	0	1	**2**		1	1						

98	"SUV SPORTI TURLARI BO'YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN" bolalar-o'smirlar sport maktabi	30	2	0	2	2	0	1	**1**			1						
99	Jizzax ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internat	97	4	1	5	5	1	3	**2**		1		1					
100	Jizzax shahar P.I.Chaykovskiy nomli 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi	32	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
101	Jizzax shahar X.X.Niyoziy nomli 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi	71	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
102	Jizzax viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi	112	4	1	5	5	1	2	**3**	1	1		1					
103	Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Jizzax hududiy bo'linmasi	28	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
104	Jizzax viloyati "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	35	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
105	Jizzax shahar "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	62	3	0	3	3	0	1	**2**		2							
106	Jizzax viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi	332	13	0	13	13	0	8	**5**	1	2	1		1				
107	Jizzax viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi	253	10	0	10	10	0	5	**5**	1	3				1			
108	Jizzax viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi	81	4	0	4	4	0	1	**3**		2				1			
109	Jizzax shahar tibbiyot birlashmasi	1112	44	1	45	45	1	17	**28**	13	12	1	1	1				
110	Jizzax viloyati Ko'z kasalliklari shifoxonasi	89	4	0	4	4	0	2	**2**	1	1							
111	Jizzax viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi	374	15	1	16	16	1	8	**8**	2	2	1	1	1	1			
118	Jizzax viloyati perinatal markazi	443	16	1	17	17	1	6	**11**	3	4	1	1	1		1		
119	Jizzax viloyat ona va bola skrining markazi	30	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
121	Jizzax viloyat kardiologiya dispanseri	107	5	0	5	5	0	1	**4**	1	2			1				
122	Jizzax viloyati ftiziatriya va pulmonologiya markazi	164	7	0	7	7	0	3	**4**	1	2	1						
123	Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax viloyat filiali	137	7	0	7	7	0	1	**6**	3	2			1				
124	Jizzax viloyat endokrinologiya dispanseri	197	8	1	9	9	1	3	**6**	1	3		1	1				
126	Jizzax viloyat stomotologiya tabobatxonasi	30	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
127	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filiali	855	34	2	36	36	2	20	**16**	6	6	1	2		1			
128	Jizzax viloyat potologiya anatomiya byurosi	24	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
129	Jizzax viloyat qon quyish markazi	33	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
130	Jizzax viloyat Sud-tibbiy ekspertiza byurosi	90	4	0	4	4	0	2	**2**	1	1							
131	Jizzax viloyati davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi	87	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
132	Jizzax viloyati tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi	50	2	0	2	2	0	1	**1**	1								
133	Viloyat "ORTTIRILGAN IMMUNITET TANQISLIGI SINDROMIGA QARSHI KURASHISH" markazi	90	4	0	4	4	0	2	**2**	1	1							
134	Jizzax viloyat Teri-tanasil tabobatxonasi	74	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
136	Jizzax viloyat Qo'g'irchoq teatri	43	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
137	Jizzax viloyati musiqali drama teatri	82	3	0	3	3	0	1	**2**	1					1			
138	O'zbekiston davlat filarmoniya Jizzax viloyat bo'linmasi	83	3	0	3	3	0	1	**2**	1	1							
139	Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi	41	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
140	Жиззах вилояти давлат архиви	25	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
141	Jizzax shaxar o'lkashunoslik muzeyi	58	2	0	2	2	0	1	**1**	1								
142	Jizzax viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi	46	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
154	"ESKI SHAHAR BUYUM" savdo kompleksi aksiyadorlik jamiyati	28	2	0	2	2	0	1	**1**						1			
155	"ESKI SHAHAR DEHQON BOZORI" mas'uliyati cheklangan jamiyati	25	2	0	2	2	0	1	**1**		1							
157	"JIZZAX MARKAZIY DEHQON BOZOR" aksiyadorlik jamiyati	50	3	0	3	3	0	1	**2**					1	1			

158	"JIZZAX AKKUMLYATOR ZAVODI" aksiyadorlik jamiyati	547	22	0	22	22	0	16	**6**	1	2	2			1		
159	"JIZZAX XUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI" aksiyadorlik jamiyati	1467	58	2	60	60	2	53	**7**	1	2	1	2	1			
161	"JIZZAX SUV TA'MINOTI" mas'uliyati cheklangan jamiyati	828	33	2	35	35	2	29	**6**	1	2	1	2				
162	"JIZZAX VILOYATI TOZA HUDUD" davlat unitar korxonasi	478	19	2	21	21	2	13	**8**	2	2		2	1	1		
ЖАМИ		**18987**	**791**	**28**	**819**	**819**	**28**	**436**	**382**	**88**	**212**	**20**	**28**	**17**	**14**	**3**	**0**